

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA
№ 1647**

1. Huquqiy ekspertiza qilinayotgan loyihaning turi:

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Konimex tumani xalq ta’limi bo’limi va “Navoiy suv ta’minoti” MCHJ, Konimex tumani bo’limi o’rtasida 05.01.2022 yilda tuzilgan № KN-00048-sonli shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvhisi va dasturga kiritilgan sana haqida ma’lumot.

Konimex tumani xalq ta’limi bo’limi va “Navoiy suv ta’minoti” MCHJ, Konimex tumani bo’limi o’rtasida tomonidan ishlab chiqarilgan va 27.01.2022 yilda dasturga kiritilgan.

Mazkur loyiha Konimex tumani yuridik xizmat ko’rsatish markazi tomonidan, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasiga asosan ushbu shartnoma loyihasini huquqiy ekspertizadan o’tkazildi va quyidagilar aniqlandi.

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.07.2014 yildagi № 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko’rsatish QOIDALARI” bilan tartibga solingan hamda shartnoma shartlari va taraflarning javobgarligi me’yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan quyidagicha xulosa qilindi,

XULOSA

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni imzolash qonunchilikka muvofiq.

Bosh yuriskonsult



**Sh.Bozorov
27.01.2022 yil**